



## **PRESS-RELIZ**

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI**

#### **PAXTA XOMASHYOSINI YETISHTIRUVCHILAR UCHUN QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI TO‘LASH HAMDA HISOBGA OLISH MUDDATLARINI MUVOFIQLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

*379-son, 14.08.2023 y.*

#### **Paxta yetishtiruvchilar uchun QQSni hisobga olishning yangi tartibi**

2023-yil hosildan paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan paxta xomashyosi to‘liq elektron tarozi orqali qabul qilinadi.

Paxta yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari (fermer xo‘jaliklari) uchun QQSni paxta xomashyosi bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish muddatigacha to‘lash va hisobga olishga ruxsat etiladi.

2026-yil 1-aprelga qadar paxta-to‘qimachilik klasterlari va qishloq xo‘jaligi korxonalari (fermer xo‘jaliklari) o‘rtasidagi hisob-kitoblar hamda QQSni hisobga olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan paxta hosili uchun yakuniy hisob-kitoblar o‘z muddatida amalga oshirilmaganda, yuzaga kelgan soliq qarzdorligini QQS to‘lovchisi hisoblangan qishloq xo‘jaligi korxonalari (fermer xo‘jaliklari)ga 3 oy muddatga teng ulushlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi beriladi;
- paxta-to‘qimachilik klasterlariga qabul qilib olingan paxta hosili uchun EHFda ko‘rsatilgan QQS summasini qishloq xo‘jaligi korxonalari (fermer xo‘jaliklari) tomonidan QQS budjetga to‘lab berilganidan so‘ng hisobga olishga ruxsat etiladi.

<https://soliq.uz/press-services/news/show/paxta-yetishtiruvchilar-uchun-qqsni-hisobga-olishning-yangi-tartibi-belgilandi->

**Soliq solish metodologiyasi departamenti**